



jild. 3 No 2 (2026)

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**



journals@timeedu.uz



+998 95 651 90 00

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT MENEJMENT VA IQTISODIYOT INSTITUTI



**“MUHANDISLIKDA SUN'IY INTELLEKT VA
RAQAMLI INNOVATSION
TEKNOLOGIYALAR: ZAMONAVIY
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR”
MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**



FARG'ONA-2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT MENEJMENT VA IQTISODIYOT INSTITUTI

"MUHANDISLIKDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR:

ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR" MAVZUSIDAGI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

21 MAY 2026 YIL



МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ

УЗБЕКИСТАН

ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ УПРАВЛЕНИЯ И ЭКОНОМИКИ

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ НА ТЕМУ

«ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЦИФРОВЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В

ИНЖЕНЕРИИ: СОВРЕМЕННЫЕ РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

21 МАЯ 2026 ГОДА



MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF

UZBEKISTAN

TASHKENT INSTITUTE OF MANAGEMENT AND ECONOMICS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE THEME "ARTIFICIAL

INTELLIGENCE AND DIGITAL INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENGINEERING: MODERN

SOLUTIONS AND PROSPECTS" 21 MAY 2026

“Muhandislikda sun’iy intellekt va raqamli innovatsion texnologiyalar: zamonaviy yechimlar va istiqbollar” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislar to‘plami. 2026-yil 21-may.

Ushbu to‘plamda — “Muhandislikda sun’iy intellekt va raqamli innovatsion texnologiyalar: zamonaviy yechimlar va istiqbollar” Xalqaro ilmiy –amaliy anjuman ishtirokchilarining tezislari keltirilgan. Anjuman kun tartibiga kiritilgan masalalar dolzarb bo‘lib, u yalpi ma’ruzalar va amaliy zamonaviy muhandislik ta’limida raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt, muhandislik yechimlari va sanoat 4.0, robototexnika va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish, ta’limda axborot va innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi, biznes jarayonlar va raqamli iqtisodiyotga axborot texnologiyalarining o‘rni kabi sho‘balardan tashkil topgan. To‘plam sohasi mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

Maqolalarda keltirilgan ma’lumotlarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldir.

©Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislar to‘plami



☎ +998 95 651 90 00

✉ journals@timeedu.uz

📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114

🌐 tmijournals.ndc-agency.uz

📧 TMII_ilmiy_bolim

Tahririyat jamoasi

BOSH MUHARRIR:

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Norbekov Shohzod Mamarasul o'g'li

TAHRIR HAY'ATI

1. Sharipov Qo'ngratbay Avezimbetovich — O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, tfd, professor.
2. Axmedov Xojiakbarxon Dilshatovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori, ifn, dotsent.
3. Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich — O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademiyasi, ifd, professor.
4. Xotamov Ibodullo Sadulloyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrası professori, ifn.
5. Sultonov Mansur Qilichovich — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi ekspertlar guruhi rahbari, tffd, dotsent.
6. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich — "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori.
7. Popkova Yelenadyevna — Rossiya Gen "Ilmiy aloqalar instituti" avtonom notijorat tashkiloti prezidenti, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
8. Dr Go Khang Ven — Malayziyaning INTI xalqaro universiteti prorektori.
9. Wang Cheng — XXR "Hebei Institute of Mechanical and Electrical Technology" instituti iffd, dotsent.
10. Xakimova Nilufar Karimkulovna — O'zMU huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti PhD, ilmiy xodimi.
11. Yo'ldoshev Nuriddin Qurbonovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Biznes boshqaruvi va moliya kafedrası ifd, professor.
12. Chariyev Qurbon Amirovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrası professori, ifd.
13. Abduraimova Nigora Radjabovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, iffd.
14. Anarqulova Gulnaz Mirzaxmatovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası professori, ifn.
15. Yakubov Sadirjan Bakiyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası professori, ifn.
16. Kadirova Istora Bobirovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Karyera markazi direktori, iffd, dotsent.
17. Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti, iffd, dotsent.
18. Mamatov Narzullo Solidjonovich — "TIQXMMI" MTU kafedra mudiri, texnika fanlari doktori, professor.
19. Turaqulov Otabek Xolmirzayevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası mudiri, tffd, dotsent.
20. Toirov Shuxrat Abduganiyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası professori vb, tffd.
21. Yusupov Rustam Abdimuratovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, tffd.
22. Nazarov Xolmo'min Abduxobovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, fmf.
23. Asrayev Muhammadmullo Abdulla o'g'li — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, tffd.
24. Yunusova Shaxnoza Muxamedumarovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dotsenti, fffd.

OLIIY TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

Sherova D.

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari asosida mustaqil ta'limni tashkil etishning falsafiy-pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi sun'iy intellekt texnologiyalarining talabaning mustaqil tafakkuri, bilish faoliyati, akademik mas'uliyati va intellektual shakllanishiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va falsafiy interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalari mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishi bilan birga, inson tafakkurining instrumentalashuvi, tayyor bilimga qaramlik va akademik autentiklikning susayishi kabi murakkab muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotning ilmiy yangiligi sun'iy intellekt asosidagi mustaqil ta'lim jarayonining epistemologik va antropologik jihatdan kompleks tahlil qilinganligida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, innovatsion texnologiyalar, mustaqil ta'lim, raqamli pedagogika, akademik halollik, reflektiv tafakkur, epistemologiya, adaptiv ta'lim, falsafiy tahlil.

Аннотация. В данном исследовании анализируются философско-педагогические аспекты организации самостоятельного обучения в системе высшего образования на основе инновационных технологий и искусственного интеллекта. Основная цель исследования заключается в выявлении влияния технологий искусственного интеллекта на самостоятельное мышление, познавательную активность, академическую ответственность и интеллектуальное становление студента. В ходе исследования использовались методы системного подхода, сравнительного анализа, контент-анализа и философской интерпретации. Результаты показали, что технологии искусственного интеллекта, повышая эффективность самостоятельного обучения, одновременно порождают такие сложные проблемы, как инструментализация мышления, зависимость от готового знания и ослабление академической аутентичности. Научная новизна исследования заключается в комплексном эпистемологическом и антропологическом анализе самостоятельного обучения на основе искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, инновационные технологии, самостоятельное обучение, цифровая педагогика, академическая честность, рефлексивное мышление, эпистемология, адаптивное обучение, философский анализ.

Abstract. This study analyzes the philosophical and pedagogical aspects of organizing independent learning in higher education through innovative technologies and artificial intelligence. The main purpose of the research is to identify the impact of artificial intelligence technologies on students' independent thinking, cognitive activity, academic responsibility, and intellectual development. The research employed system approach, comparative analysis, content analysis, and philosophical interpretation methods. The findings indicate that while artificial intelligence technologies increase the effectiveness of independent learning, they also create complex problems such as instrumentalization of thinking, dependence on ready-made knowledge, and weakening of academic authenticity. The scientific novelty of the study lies in the complex epistemological and anthropological analysis of AI-based independent learning.

Keywords: artificial intelligence, innovative technologies, independent learning, digital pedagogy, academic integrity, reflective thinking, epistemology, adaptive learning, philosophical analysis.

Kirish

Zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotining raqamli bosqichi insoniyatning bilim olish usullari, kommunikativ madaniyati va tafakkur shakllarini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa oliy ta'lim tizimida sun'iy intellekt va innovatsion texnologiyalarning keng kirib kelishi ta'lim paradigmasining mazmunini yangidan shakllantirmoqda. An'anaviy ta'lim modeli asosan bilimni uzatishga yo'naltirilgan bo'lsa, bugungi davrda talabaning mustaqil bilim izlash, tahlil qilish va reflektiv fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ustuvor pedagogik vazifaga aylanmoqda.

John Dewey ta'lim markazida insonning faol tajribasi va mustaqil tafakkuri turishi zarurligini ta'kidlaydi [1]. Paulo Freire esa bilimni tayyor shaklda qabul qilish emas, balki tanqidiy anglash jarayoni sifatida talqin qiladi [2]. Mazkur nazariy qarashlar zamonaviy mustaqil ta'lim konsepsiyasining metodologik asoslarini tashkil etadi.

Sun'iy intellekt vositalari talabalarga qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni topish, qayta ishlash va tizimlashtirish imkonini bermoqda. Biroq mazkur jarayon inson tafakkurining mohiyati, mustaqil fikrlash chegaralari va akademik mas'uliyat bilan bog'liq murakkab falsafiy savollarni ham yuzaga chiqarmoqda. Chunki bilimning tez olinishi uning chuqur anglanganligini

anglatmaydi. Tayyor javobning mavjudligi tafakkurning faol harakatini sekinlashtirishi mumkin. Shu jihatdan zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, insonning intellektual mustaqilligi masalasini ham dolzarblashtirmoqda. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi aynan shu muammo bilan belgilanadi. Zamonaviy ta'limning asosiy muammolaridan biri texnologiyaning mavjudligida emas, balki inson tafakkurining texnologik vositalarga tobora qaram shaklga aylanish xavfining kuchayib borayotganidadir. Shu sababli sun'iy intellektni ta'limga integratsiya qilish jarayoni faqat texnik yoki metodik hodisa sifatida emas, balki falsafiy-antropologik va axloqiy muammo sifatida ham tahlil qilinishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqil ta'lim va raqamli pedagogika muammolari zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan. Manuel Castells raqamli jamiyat konsepsiyasida axborot texnologiyalari insonning bilim ishlab chiqarish va kommunikativ munosabatlarini tubdan transformatsiya qilayotganini qayd etadi [3]. Shoshana Zuboff esa raqamli texnologiyalar inson tafakkuri va xulq-atvorini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirayotganini ta'kidlaydi [4]. Byung-Chul Han zamonaviy raqamli madaniyat sharoitida insonning reflektiv tafakkuri zaiflashayotganini va tezkor axborot oqimi chuqur mushohada imkoniyatlarini toraytirayotganini ko'rsatadi [5]. Mazkur qarashlar sun'iy intellekt asosidagi mustaqil ta'limning ichki ziddiyatlarini tushunishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. George Siemensning konektivizm nazariyasida bilim tarmoqli muhit orqali shakllanishi va texnologiyalar zamonaviy o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylangani asoslanadi [6]. Biroq texnologik vositalarning ortishi ayrim hollarda inson tafakkurining passivlashuviga ham olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi. Mahalliy tadqiqotlarda ham ta'limni raqamlashtirish, elektron pedagogika va innovatsion metodlar bilan bog'liq ilmiy izlanishlar mavjud [7]. Ammo generativ sun'iy intellektning talaba tafakkuri, akademik autentiklik va mustaqil bilim olish madaniyatiga ta'siri yetarlicha kompleks o'rganilmagan.

Materiallar va metodlar. Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va falsafiy interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida generativ sun'iy intellekt vositalari, adaptiv ta'lim platformalari hamda raqamli pedagogika bilan bog'liq ilmiy manbalar nazariy-qiyosiy asosda o'rganildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar tomonidan AI vositalaridan foydalanish tendensiyalari bilan bog'liq ilmiy maqolalar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli ta'lim muhitidagi kuzatilayotgan transformatsiyalar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tayyor algoritmik javoblarga qaramlik, reflektiv fikrlashning qisqarishi, akademik javobgarlikning transformatsiyasi hamda bilimning instrumental

xarakter kasb etishi bilan bog'liq holatlar falsafiy-pedagogik nuqtai nazardan interpretatsiya qilindi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida sun'iy intellekt vositalari asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayonining pedagogik, epistemologik va falsafiy jihatlarini kompleks tahlil qilindi. Generativ sun'iy intellekt texnologiyalari, adaptiv ta'lim platformalari hamda raqamli pedagogika bilan bog'liq ilmiy manbalar qiyosiy asosda o'rganilganda, zamonaviy texnologiyalar talabalarning bilim olish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt vositalari ma'lumotlarni topish, ilmiy matnlarni tizimlashtirish, murakkab mavzularni qisqa vaqt ichida tushunish va individual o'quv trayektoriyasini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ayniqsa adaptiv platformalar talabaning bilim darajasi va individual ehtiyojiga mos ta'lim muhiti yaratishga xizmat qilmoqda. Natijada mustaqil ta'lim jarayonining moslashuvchanligi ortib, bilim olish tezligi sezilarli ravishda oshmoqda.

Biroq tadqiqot natijalari mazkur jarayonning ichki ziddiyatli xarakterga ega ekanligini ham ko'rsatdi. Texnologik qulaylikning ortishi ayrim hollarda talabaning mustaqil analitik tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kuzatilgan holatlarda talabalar murakkab ilmiy muammoni mustaqil tahlil qilishdan ko'ra, tayyor algoritmik javoblarga murojaat qilishga ko'proq moyillik bildirayotgani aniqlandi. Natijada bilish jarayonining reflektiv tabiati zaiflashib, tafakkurning ichki intellektual mehnat bilan bog'liq murakkab bosqichlari qisqarib bormoqda. Bu holat Byung-Chul Han tomonidan tavsiflangan "tezkor axborot jamiyati" fenomeni bilan hamohang ravishda inson tafakkurining chuqur mushohadadan uzoqlashayotganini ko'rsatadi [5].

Tahlillar yana shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt vositalari yordamida tayyorlangan ilmiy matnlarning tashqi strukturasi va texnik sifati yaxshilanayotgan bo'lsa-da, ayrim hollarda ulardagi konseptual chuqurlik yetarlicha shakllanmayapti. Xususan, talabalar tomonidan tayyorlangan ayrim matnlarda terminologik mukammallik va mantiqiy izchillik kuzatilgan bo'lsa-da, mustaqil metodologik pozitsiya hamda original tahliliy yondashuvning sustligi namoyon bo'ldi. Bu esa akademik matnning tashqi mukammalligi bilan haqiqiy ilmiy tafakkur o'rtasida tafovut paydo bo'layotganini ko'rsatadi. Natijada bilimning formal ko'rinishi uning mazmuniy chuqurligidan ustunlashishi xavfi yuzaga kelmoqda.

Shuningdek, tadqiqot davomida generativ sun'iy intellektidan muntazam foydalanish ayrim talabalar tafakkurida "tezkor natija mentaliteti" shakllanishiga olib kelayotgani kuzatildi. Bunday sharoitda bilimning qadri murakkab izlanish va intellektual tajriba bilan emas, balki ma'lumotni qisqa vaqt ichida olish imkoniyati bilan baholana boshlaydi. Bu esa zamonaviy raqamli madaniyatning

instrumental xarakteri ta'lim tizimiga ham chuqur kirib borayotganini anglatadi. Ayniqsa bilim olish jarayonining texnologik qulaylik asosida tashkil etilishi ayrim hollarda tafakkurning tabiiy murakkabligini soddalashtirib yubormoqda.

Mazkur holat epistemologik nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki an'anaviy ta'lim modelida bilim insonning ichki tafakkuriy shakllanish jarayoni sifatida qaralgan bo'lsa, raqamli muhitda bilim tobora tayyor axborot mahsulotiga aylanib bormoqda. Natijada "bilimni yaratish" jarayoni asta-sekin "bilimni iste'mol qilish" modeli bilan almashish xavfi bilan yuzlashmoqda. Bu esa oliy ta'limning mohiyati bilan bog'liq fundamental savollarni keltirib chiqarmoqda. Chunki haqiqiy ilmiy tafakkur tayyor javobni qabul qilish emas, balki shubhalanish, izlanish, tahlil qilish va ichki intellektual mehnat jarayonida shakllanadi.

Tadqiqot natijalari yana bir muhim tendensiyaning ko'rsatdi: sun'iy intellekt vositalari mustaqil ta'lim samaradorligini oshirayotgan bo'lsa-da, akademik halollik va intellektual mas'uliyat masalalarini ham murakkablashtirmoqda. Ayrim hollarda talabalar tayyor AI matnlarini minimal tahrir bilan ilmiy ish sifatida taqdim etishga moyillik bildirayotgani kuzatildi. Bu esa ta'lim jarayonida bilimni baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Endilikda baholash mezoni faqat yakuniy natija emas, balki bilimga olib boruvchi tafakkur jarayonining o'zi bilan ham bog'lanishi lozim.

Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish samaradorligi faqat texnologik qulaylik bilan emas, balki inson tafakkurining mustaqilligi, reflektivligi va akademik autentikligini saqlab qolish darajasi bilan ham baholanishi zarur. Ayniqsa oliy ta'lim tizimida raqamli tafakkur etikasi, analitik-reflektiv topshiriqlar va akademik mas'uliyat madaniyatini kuchaytirish sun'iy intellekt sharoitida insonning intellektual mustaqilligini saqlab qolishning muhim pedagogik shartlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt va innovatsion texnologiyalar oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limning tashkiliy shakllari, bilish mexanizmlari hamda pedagogik munosabatlarini sezilarli darajada transformatsiya qilmoqda. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, individuallashtirish va tezkorligini oshirayotgan bo'lsa-da, mazkur jarayon inson tafakkurining ichki tabiati bilan bog'liq murakkab epistemologik va antropologik muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Ayniqsa generativ sun'iy intellekt vositalarining keng tarqalishi bilim olish jarayonining mohiyatini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhiti ayrim hollarda mustaqil tafakkurning reflektiv chuqurligini susaytirishi mumkin. Talabaning tayyor

mantiqiy konstruksiyalar va avtomatlashtirilgan javoblarga ko'nikib borishi bilish jarayonining ijodiy hamda analitik xarakteriga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada bilim asta-sekin ichki intellektual tajribadan ko'ra tezkor iste'mol qilinuvchi axborot shakliga aylanish xavfi bilan yuzlashmoqda.

Shuningdek, tadqiqot davomida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish akademik autentiklik masalasini ham keskinlashtirayotgani aniqlandi. Matnning tashqi sifati va strukturaviy mukammalligi har doim ham talabning haqiqiy ilmiy tafakkuri shakllanganini anglatmaydi. Shu sababli zamonaviy oliy ta'lim tizimida natijadan ko'ra bilimga olib boruvchi tafakkur jarayonining o'zi muhim pedagogik mezon sifatida qaralishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellektni ta'lim tizimiga integratsiya qilish texnologik samaradorlikni oshirish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Aksincha, zamonaviy pedagogika inson tafakkurining mustaqilligini, reflektiv madaniyatini hamda akademik mas'uliyatini saqlab qolishga xizmat qiluvchi metodologik mexanizmlarni ishlab chiqishi lozim. Umuman olganda, sun'iy intellekt inson tafakkurining o'rnini bosuvchi mexanizm emas, balki uning analitik imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida shakllangandagina pedagogik va ijtimoiy jihatdan ijobiy natija berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
2. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 1970.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishing, 2010.
4. Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism. – New York: Public Affairs, 2019.
5. Han B.-C. The Burnout Society. – Stanford: Stanford University Press, 2015.
6. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005.
7. Karimov N. Raqamli pedagogika va zamonaviy ta'lim transformatsiyasi. – Toshkent: Fan, 2023.

MUNDARIJA		
1-SHO'BA: ZAMONAVIY MUHANDISLIK TA'LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT		6
<i>Turakulov O Asrayev M Karimov E</i>	QISHLOQ VRACHLIK PUNKTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING RO'LI	6
<i>G'oipova Kh</i>	VOICE ANALYSIS TECHNOLOGIES SPECIAL ALGORITHMS AND ARTIFICIAL INTELLECT MODELS	11
<i>G'oipova Kh</i>	SECURITY MECHANISMS BASED ON VOICE AND VIDEO SYNTHESIS	17
<i>Sh.A.Toirov, T.E.Xudoyqulov</i>	METHODS AND SOLUTIONS FOR GENERALIZING AMPLITUDE AMPLIFICATION IN QUANTUM ALGORITHMS	23
<i>Rizayev X</i>	MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA AUTOCAD DASTURIDAN BIM TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN REVIT DASTURIGA O'TISHNING DIDAKTIK AFZALLIKLARI	27
<i>Turakulova Sh</i>	KO'Z TUBI TASVIRLARIDA QON TOMIR TARMOQLARINING DIAMETRI, EGRI-BUGRILIGI VA TARMOQLANISH BURCHAKLARI ASOSIDA DIAGNOSTIK TAHLIL	34
<i>Turakulov O, Jumaboyev D</i>	IJTIMOIIY TARMOQ YOZISHMALARIDAGI HISSIYOTLARNI TAHLILLASH MODELII	45
<i>X.T. Dusanov</i>	SUN'IY INTELLEKT ALGORITMLARI ASOSIDA TASVIRLAR SIFATINI OSHIRISH	49
<i>Yusupov R.A.</i>	YER OSTI SUVLARI GIDROSFERASI HARAKATINI SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA MODELLASHTIRISH	56
<i>Erhanova N</i>	BOLALARNING NUTQINI O'STIRISH ORQALI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH	64
<i>S.A. Olimov</i>	TA'LIM TIZIMIGA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH JIHATLARI	70
<i>Shadmanov S</i>	SUN'IY INTELLEKTNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	77
2-SHO'BA: MUHANDISLIK YECHIMLARI VA SANOAT 4.0		82
<i>Норматов Ш, Туражонов К,</i>	МЕТОД ОЦЕНКИ УСТОЙЧИВОСТИ ОТКОСОВ И УСТУПОВ КАРЬЕРА	82

Логинов П, Акбаров Н		
Егорова В.В.	ЖИВУЧЕСТЬ И ТЕХНИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ КОНСТРУКЦИЙ КАРКАСА ЗДАНИЯ В РЕЗУЛЬТАТЕ ОСОБОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ	89
Ochilova I	O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA GENDER TENGLIK INDIKATORLARINI RAQAMLI MONITORING QILISH MEXANIZMLARI	104
Axmedov X, Sharipov K	KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA ZAMONAVIY TAHLIL METODLARINING AHAMIYATI	109
Khidirova D	TOWARDS TRUSTWORTHY WILDFIRE DETECTION: INTEGRATING EXPLAINABILITY AND UNCERTAINTY IN DEEP LEARNING MODELS	113
Axmedov X, Sharipov K	RAQOBAT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH ASOSIDA KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	120
Narbayev Sh, Abduqayumov A	DAVLAT KORXONALARIDA ESG STANDARTLARI ASOSIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	126
Omonturdiyev O	SIFATLI NOTO'QIMA MATO OLISH UCHUN JUN TOLASINI CHO'TKALI BARABAN ORQALI SAMARALI TOZALASH VA UZATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI	132
Rashidov J.X., Kaipov A. K	IQTISODIY MODERNIZATSIYA JARAYONIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	143
Rashidov J.X., Kaipov A. K	IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA VA DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONIDA KORXONALARDAGI MOLIVAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	147
Kadirjanova M	KORXONALARDA INNOVATSION RIVOJLANISHNI BOSHQARISH STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	158
Kadirjanova M	KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.	166

<i>R.M. Tursunova, M.E. Tursunov, G. Abduraxmanov, A.T. Dexqonov, Sh.M. Norbekov, D.R. Jumaboyev</i>	LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHASIDA SIZIB O'TISH BUSAG'ASIGA TEXNOLOGIK OMILLAR TA'SIRI	173
3-SHO'BA: ROBOTOTEXNIKA VA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARI		179
<i>Asrayev M, Tursunaliyeva O</i>	HTTP GET ORQALI SERVERGA ULANISH.	179
<i>M.E. Tursunov, Sh.M. Norbekov</i>	AVTOMOBILLAR UCHUN PELTIER EFFEKTI ASOSIDAGI MINI AQLLI SUV SOVITISH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TADQIQ ETISH	188
<i>Yakubov S, Xasanova Sh.</i>	ROBOTOTEXNIKA VA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARINING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI INTELLEKT	194
4-SHO'BA: KIBERXAVFSIZLIK VA MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH		201
<i>Sh.A.Toirov, A.A.Seytnazarova, T.E.Xudoyqulov</i>	OPTIMIZING GLOBAL SEARCH PROBLEMS USING GROVER'S QUANTUM ALGORITHM	201
<i>Toshpo'latov Sh</i>	VEB-ILOVALARDA HTTP XAVFSIZLIK SARLAVHALARINI JORIY ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	209
<i>Очилов Н, Набиев С</i>	АНАЛИЗ АРХИТЕКТУРНОГО СЛОЯ ИСТОЧНИКОВ ДАННЫХ DLP-СИСТЕМ ДЛЯ ГИБРИДНЫХ КОРПОРАТИВНЫХ СРЕД	215
<i>Toirov Sh, Asrayev M, Yo'ldoshaliyeva G</i>	KIBERHUJUM VA UNGA QARSHI KURASH	225
<i>Karabayev R.</i>	O'ZBEKISTONDA KIBERXAVFSIZLIK HOLATINI BAHOLASH VA KIBERXAVFLARNING STATISTIK TAHLILI	229

5-SHO'BA: TA'LIMDA AXBOROT VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI		237
<i>Suyunov Y, Nazarov U</i>	RAQAMLI TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA MOLIVAVIY NAZORATINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI	237
<i>Gulyamova Sh</i>	THE NEW SETUP IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING (ELT): THE INTEGRATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND STANDARD CLASSES	247
<i>Xashimov A, Mamatov A</i>	KADRLARNI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH UCHUN ELEKTRON BAHOLASH TIZIMLARI TAHLILI	252
<i>Mirzaev R.</i>	MATERIALLARNI ME'YORLASHTIRISH JARAYONIDA DATA ANALITIKA VA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI	264
<i>Xaydarov S</i>	TALABALARNI TARBIYALASHDA JISMONIY VA MA'NAVIY BARKAMOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARIDA AXBOROT VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI	269
<i>Anarkulova G, Mamajonova R.</i>	OLIY TA'LIMDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	278
<i>Sherova D.</i>	OLIY TA'LIMDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI	284
<i>Mukhamadiyev A, Sh.A.Toirov</i>	OPTIMIZING EDUCATIONAL PROCESSES WITH GENERATIVE AI: INNOVATIVE INSTRUCTIONAL DESIGN AND AUTOMATED ASSESSMENT TOOLS	290
<i>Xoshimova M.</i>	AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA KONFLIKTOLOGIK	301

	KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH	
<i>Olamova M.</i>	PEDAGOGIK LOYIHALASHDA TALABALARDA AXBOROT-KONSTRUKTIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI	306
<i>Mamadaliyev N.</i>	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA “MA’LUMOTLAR TUZILMASI VA ALGORITMLAR” FANINING DASTURIY TA’MINOTINI PEDAGOGIK QO’LLASH METODIKASI	311
<i>G’aniyeva M. Yunusova I</i>	BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTI (ESG) – KORXONALARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY AUDITI SIFATIDA	315
<i>Juraboyeva Sh.</i>	TA’LIM VA BIZNES INTEGRATSIYASIDA RAQAMLI PLATFORMALARNING AHAMIYATI.	320
<i>Anvarov D.</i>	O’ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINI O’QITISHDA AXBOROT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO’LLANILISHI: METODOLOGIK TAHLIL VA SAMARADORLIK	326
<i>Usmonova M.</i>	TELEFONGA TOBELIK – NOMOFOBIYA: ZAMONAVIY DAVRNING PSIXOLOGIK ILLATLARI.	331
<i>Jo’rayeva N</i>	KORXONALARDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH: CRAFTERS SHIRINLIKLAR KORXONASI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT	340
<i>A. M. Романова, С.А. Олимов</i>	ЗНАЧЕНИЕ СЕТЕВОЙ ФОРМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ УВО ДЛЯ ИНЖЕНЕРНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ	349
<i>Suyunova N</i>	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH	354
<i>Уснитдинов М</i>	РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА).	361

6-SHO'BA: BIZNES JARAYONLAR VA RAQAMLI IQTISODIYOTGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI.		368
<i>Axmedov X.D, Kamalov Sh.F</i>	SANOAT KORXONALARIDA OPTIMAL XARAJATLAR STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI	368
<i>Sodiqov M</i>	TOVARLAR VA XIZMATLARNI KENG TABAQALASHTIRISH YO'NALISHLARI	381
<i>R.B.Mirzayev</i>	REKLAMA TIZIMI VA SOTUV JARAYONINI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI.	388
<i>Primov S, Akramov J</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	392
<i>Karabayev R.</i>	ИСККУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА	401
<i>Абдураимова Н, Зоҳидов А</i>	ПУТИ ДОСТИЖЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЗА СЧЁТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СЕТЕЙ В УЗБЕКИСТАНА	407
<i>М.Асраев, Ш.Акбаров</i>	ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ФУНДАМЕНТ КОМПОЗИТНОГО БИЗНЕСА	417
<i>Abduraimova N, Zohidov A</i>	BARQAROR TARMOQLARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI BAHOLASHNING DOLZARB MODELLARI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	422
<i>Samatov A, Turdibekova S.</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLIGYALARNI JORIY QILISHNING SAMARADORLIGI.	430
<i>Samatov A, Turdibekova S.</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUV ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY MODELLARI TAHLIL QILISH	435
<i>Toxirov J.</i>	EKOLOGIK STANDARTLAR JORIY ETILISHIDA BUYRUQBOZLIK VA BOZOR MEKANIZMLARINING TA'SIRI	440

<i>Maxmudov J.</i>	O'ZBEKISTONNING "TASHQI QARZ ORQALI RIVOJLANISH STRATEGIYASI"	450
<i>Shoyev D, Abdullayeva G.</i>	BOSHQARUV SIFATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	459
<i>Daminova O', Pulatov Sh.</i>	QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARINING IQTISODIY MOHIYATI, TASNIFI VA FAOLIYAT XUSUSIYATLARI	467
<i>Daminova O', Pulatov Sh.</i>	QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI XALQARO BOZORLARGA OLIB CHIQISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	471
<i>Narbayev Sh.K. Nabixonov S.</i>	BIZNES ETIKASIDAN KORPORATIV MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA FOYDALANISH	480
<i>Muydinov N</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA IT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI	487
<i>Primov S, Shakirov X.</i>	DAVLAT TASHQI QARZI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	491
<i>Primov S, Shakirov X</i>	RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA "YASHIL" IQTISODIYOTNING STRATEGIK YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI.	498
<i>Bozorov J</i>	MEHNAT MIGRATSIYASINI KAMAYTIRISHDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY AHAMIYATI	505
<i>Mamajonov A</i>	STARTAPLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH MARKAZLARI FAOLIYATI: JAHON TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	511
<i>Samatov A, Kushbakov B</i>	KORXONANING IQTISODIY SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONLARI	516
<i>X.D.Axmedov, Kamalov.Sh</i>	KORXONADA TEXNIKAVIY VA MEHNAT RESURLARINI BOSHQARISH TAHLILI	521
<i>Karabayev R</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT: NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	527
<i>Туракулов О, Асраев М,</i>	ЛУЧШИЕ РЕШЕНИЯ ДЛЯ ОПТИМИЗАЦИИ ЛОГИСТИКИ	532

<i>Мирзаева О.</i>		
<i>Алимов О</i>	ФОРСИРОВАННАЯ ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИЯ БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: ИИ-ПОДХОД ДЛЯ ЭКСПАНСИИ НА ВНЕШНИЕ РЫНКИ	543
<i>Nazarov X</i>	OCHIQ BANK (OPEN BANKING) FAOLIYATINING XALQARO TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA QO'LLANILISHI	551
<i>Narbayev Sh.K, Nabixonov S</i>	ISHBILARMONLIK ETIKASINI RIVOJLANTIRISHNI KORPORATIV MADANIYATGA TA'SIRI	560
<i>R.B.Mirzayev</i>	TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SOLIQ HUQUQI MADANIYATINING AHAMIYATI	572
<i>Narbayev Sh.K, Axmadaliyev V.A.</i>	QISHLOQ XO'JALIGI YERLARI MONITORINGINI YURITISHDA MASOFADAN ZONDLASH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	580
<i>Soliyev D</i>	SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH: AFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI	590
<i>Samatov A, Allanov U</i>	SIFAT MENEJMENT TIZIMIDA NOMUVOFIQLIKLARNI ANIQLASH USULLARI	597
<i>Narbayev Sh, Abdufattoxova H</i>	MENEJMENT FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKTNING INNOVATSION YECHIMLARI	600
<i>Narbayev Sh.K, Abduqayumov A</i>	KORXONALARDA ESG (Environmental, Social, Governance) KO'RSATKICHLARINI JORIY ETISHDA MENEJMENTNING ROLI	605
<i>Primov S, Akramov J</i>	DAVLAT MOLIVASINING BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ASOSIY MUAMMOLARI VA BARTARAF ETISH YO'LLARI	611

Ingliz tili muharriri: Norbekov Shohzod Mamarasul o'g'li
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda, "**Management and Economics Scientific Research Journal**" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114